

«Mazali baxt» aksiyasi qoidalari

1. Aksiya nomlanishi «Mazali baxt», bundan keyin – Aksiya deb yuritiladi.
2. Tanlovda qatnashish xavfga asoslangan emas, ishtirok etish va sovrinni olish uchun to'lov talab qilinmaydi.
3. Aksiya tashkilotchilari OOO «Unique Present» (Media Holding) Toshkent shahri Yunusobod tumani Qo'rg'on ko'chasi 3 uy, «Adolat 2010» (reklama agentligi PurNur) buyurtmasiga asosan, Dushanbe shahri Ayniy ko'chasi 16B
4. Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib o'tadi.
5. Aksiya o'tkazilish muddatlari – 2019 yil 1 martdan 31 iyulga qadar. Kodlarni ro'yxatdan o'tkazish muddatlari: 2019 yilning 1 martida soat 00 dan 01 daqiqa o'tganidan 30 iyunning soat 23 dan 59 daqiqa o'tguniga qadar. Sovrinlar berilish muddatlari – 2019 yil 6 apreldan 31 iyulga qadar.
6. Aksiya ishtirokchisi bo'lish uchun quyidagi harakatlarni amalga oshirish kerak:
 - a. Mavjud Qoidalar bilan tanishib chiqish va ularni qabul qilish. Qoidalarni qabul qilishning tasdig'I bo'lib Qoidalarda sanab o'tilgan harakatlarni bajarish hisoblanadi.
 - b. O'zbekistonning istalgan sotuv nuqtasidan aksiya paketidagi MAKFA mahsulotini harid qilish.
 - c. Aksiya bo'lib o'tadigan muddatlarda Aksiya kodini Aksiya sayti www.makfa-promo.com da yoki telegram-bot @makfa2019_bot da ro'yxatdan o'tkazish.
 - d. Aksiya tugagunga qadar aksion paketni saqlab qolish.
7. Aksiya ishtirokchilari 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lishi mumkin.
8. Aksiyada ishtirok etishga Tashkilotchi va Buyurtmachilar qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi.
9. Aksiyada ishtirok etadigan mahsulotlar ro'yxati:
 - Uzun vermishel "MAKFA" 400 g
 - Uzun vermishel "MAKFA" 500 g
 - Aylana "MAKFA" 400 g
 - ПЕРЬЯ ЛЮБИТЕЛЬСКИЕ "MAKFA" 400 g
 - Chig'anoqlar "MAKFA" 400 g
 - Spiral "MAKFA" 400 g
 - Talyatelle (uzun lag'mon, uya) "MAKFA" 450 g kg
 - УЛИТКИ "MAKFA" 400 g
 - Grechka doni "Haqiqiy grechka" EKSTRA 400 g
 - Grechka doni tez qaynatiladigan 800 g
 - Un "MAKFA" 2 kg

10. Aksiya qadog'I – bu aksiya anonsi va aksiya kodi tushirilgan qadoq.

11. Aksiya qadog'ida aksiya kodlarini joylashtirish:



12. Aksiya sovrin fondi Aksiya Tashkilotchilari hisobidan shakllantiriladi va quyidagilardan tashkil topgan:

Asosiy sovrin. Chevrolet Spark mashinasi, 1 dona, Aksiyadagi so'nggi sovrin, shuningdek sovrinning pullik ulushi
Birinchi toifali sovrin. Artel muzlatgichi, 4 dona, Aksiyaning har oyi uchun 1 donadan, shuningdek sovrinning pullik ulushi
Ikkinchi toifali sovrin. Artel mikroto'lqinli pechlari, 20 dona, Aksiyaning har oyi uchun 5 donadan, shuningdek sovrinning pullik ulushi
Uchinchi toifali sovrin. Artel multivarkasi, 40 dona, Aksiyaning har oyi uchun 10 donadan, shuningdek sovrinning pullik ulushi
To'rtinchi toifali sovrin. Oshxona jihozlari, 100 to'plam, Aksiyaning har oyi uchun 15 to'plamdan, shuningdek sovrinning pullik ulushi
Beshinch toifali sovrin. TM MAKFA Uyalar to'plami 450 g., 3000 ta paket, Aksiyaning har oyi uchun 400 ta paketdan, shuningdek sovrinning pullik ulushi

13. Sovrinning pullik ulushi jismoniy shaxslardan sovrinning bahosidan 12% miqdorida soliqni o'zida jamlagan, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 181 va 178 bandlarini inobatga olib hisoblanadi. Aksiya Tashkilotchilari jismoniy shaxs uchun soliq to'lash majburiyatini oladi (istalgan toifadagi sovrin g'olibi uchun uning yashash manzili bo'yicha jismoniy shaxsdan tegishli hujjatlar (pasportidan nusxa, yashash joyidan ma'lumotnoma, STIR)).

14. Moddiy sovrinlarning bahosini pul ko'rinishda to'lanishi yoki boshqa sovrinlarga almashtirish mumkin emas.

15. Birgina yagona Kod Aksiyada ishtirok etish uchun bir marotaba ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Aksiyada ishtirok etish uchun oldin ro'yxatdan o'tkazilgan Kodni qayta ro'yxatdan o'tkazish Aksiyada ishtirok etish uchun harakat hisoblanmaydi va Aksiyada ishtirok etishga huquq bermaydi.
16. Ishtirokchi tomonidan Saytda kiritilgan unikal kod sifatida identifikatsiya qilib bo'lmaydigan ramzlar Aksiyada ishtirok etish uchun bajarilgan amal deb hisoblanmaydi.
17. Aksiya ishtirokchilari identifikatsiyasi Aksiya sayti yoki telegram bot orqali ishtirokchi ism-sharifi, telefon raqami va Aksiya Kodini ro'yxatdan o'tkazayotganda o'zi tomonidan kiritilgan boshqa ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.
18. Sovrinlar o'yini quyidagicha amalga oshiriladi:
 - a. Aksiya Sayti va telegram bot orqali ro'yxatdan o'tkazilgan Kodlar orqali yagona kodlar bazasi shakllanadi.
 - b. O'yin tasodifiy sonlar generatori www.randstuff.ru/number/ dan foydalangan holda tasodifiy tarzda Aksiya Kodlari bazasidan amalga oshiriladi.
 - c. O'yinda kalendar oyining o'yin bo'lib o'tadigan kundan oldingi kunning 23.59 daqiqasi o'tgunga qadar ro'yxatdan o'tkazilgan kodlar o'ynaladi.
 - d. Barcha ro'yxatdan o'tgan Aksiya Kodlari sovrin yutilgunga yoki Aksiya tugagunga qadar har o'yinda o'ynaladi.
 - e. Sovrinlar o'yini eng kattadan eng kichigiga tomon o'ynalib boriladi: dastlab birinchi darajali, so'ngida beshinchi darajali sovrinlar.
19. O'yinlar o'tkazilish sanalari: 5 apreldan yangi oyning har 5-sanasi yoki undan keyingi birinchi ish kunida. Mashina o'yini 5 iyulda bo'lib o'tadi.
20. Sovrin yutug'I haqida G'oliblar quyidagi tartibda va muddatlarda xabardor qilinadi:
 - a. Birinchi – to'rtinchi toifali sovrinlar va asosiy sovrin bo'yicha – g'oliblar o'zlari ko'rsatgan telefon raqamalariga qo'ng'iroq qilish orqali chaqiriladi, bunda aksiya operatori tomonidan paketdagi kod suratini yuborilishi so'raladi.
 - b. Beshinchi toifali sovrinlar uchun – sovrinlarni taqdirlash sanasi va vaqti bilan G'olibning raqamiga sms orqali.
 - c. Sovrinni olish jarayoni o'yin bo'lib o'tgan kundan boshlab 2 ish kundan kechikmay amalga oshiriladi
21. Har bir g'olib o'z o'yin amalga oshgan oyning 25-sanasidan kechikmagan holda o'tkaziladigan sovrinlarni taqdirlash marosimida olishi mumkin. Taqdirlash sanasi, joyi va vaqtini Operator yutuq haqida xabar berganida ma'lumot berib o'tadi. Agar sovrin belgilangan muddatda olib ketilmasa, u keying o'yinlarda qayta o'ynaladi. Ushbu band birinchi – uchinchi hamda Aksiyaning asosiy sovrini g'oliblari uchun majburiydir.

22. Agar ishtirokchi taklif qilingan sovrinlar taqdirlash marosimiga kela olmasa, Aksiya Operatori bilan kelishgan holda sovrinni ushbu manzilda olib ketishi mumkin: Toshkent shahar Qo'rg'on ko'chasi 3-uy. Sovrinni olish uchun g'olibning qo'lida pasport va yutuqli kod aksiyali paketi bo'lishi kerak. Sovrinlarni olish muddatlari o'yin bo'lib o'tgan oyning 30-sanasiga qadar. Ko'rsatilgan muddatlarda sovrin talab qilinmasa, u keying o'yinda qayta o'ynaladi. Ushbu band to'rtinchi va beshinchi toifadagi sovrinlar uchun majburiydir. Birinchi-uchinchi toifadagi sovrinlar va asosiy sovrin g'oliblari uchun sovrinlarni taqdirlash marosimida ishtirok etish majburiydir.
23. Sovrinni olish uchun ishtirokchi aksiyaya yutuqli kodi bilan bo'sh aksiya paketini taqdim etishi shart. Ishtirokchida ushbu paketning mavjud emasligi uni sovrinni olish huquqidan mahrum qiladi.
24. Aksiya Tashkilotchilari va Operatori Aksiya Ishtirokchisi va G'oliblari sonidan bir tomonlama ko'rinishda sababini ham tushuntirmay o'chirishi mumkin:
- a. Tashkilotchilar/Operator talabiga binoan yutuqli Aksiya Kodi mavjud paketni taqdim etmagan shaxslarni.
 - b. Hujjatlari (pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat) ni taqdim etmagan shaxslarni.
 - c. O'zlari haqida soxta ma'lumot bergan yoki sovrinni asossiz olish maqsadi ko'zlangan shubhali hatti-harakatlarni amalga oshirgan shaxslar.
25. Aksiya qoidalari va shartlari bilan Aksiya Sayti www.makfa-promo.com da yoki quyidagi raqamlar orqali +998909935968, +998909934912 issiq yo'nalish bo'yicha tanishib chiqish mumkin. Aksiya Kodlari ro'yxatdan o'tkazilishi issiq yo'nalish bo'yicha amalga oshirilmaydi. Aksiya issiq yo'nalishi ish tartibi: 09:00 dan 17:00 gacha dushanbadan shanbagacha.
26. Aksiyada ishtirok etish dalili bu Ishtirokchilar ularga buning uchun hech qanday to'lov amalga oshirilmasdan turib ularning ism-shariflari, suratlari, video-, audio- va boshqa ular haqidagi ma'lumotlar Aksiya Tashkilotchilari va Operatori tomonidan istalgan reklama va (yoki) Aksiya o'tkazilishi bilan bog'liq information ma'lumot sifatida foydalanilishiga o'z roziliklarini bildirganidir. Aksiya G'oliblari ommaviy axborot vositalarida o'z intervyularini berishga va reklamada tushishga o'z roziliklarini beradilar. Ushbu turdagi reklamalar uchun barcha huquqlar Aksiya Tashkilotchilariga tegishlidir.